**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrasi katta o'qituvchisi Zulayxo Kazakova tomonidan "Menejment va marketing" fanining "Bozor segmentatsiyasi va xaridorlar turlari. Tovar va tovar siyosati." mavzusi bo'yicha tayyorlagan ochiq ma'ruza darsi ishlanmasiga**

## T A Q R I Z

Ochiq ma'ruza darsining mavzusi "Menejment va marketing" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturi (sillabusi)ga to'liq mos keladi, ma'ruza dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimot qilingan holda uslubiy tomondan to'g'ri tanlangan. Ishlanmada ochiq ma'ruza darsining rejasi, maqsad va vazifalari, o'qitish pedagogik texnologiyalari, taqdimotlar berilgan bo'lib, unda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari to'liq ochib berilgan.

"Bozor segmentatsiyasi va xaridorlar turlari. Tovar va tovar siyosati" ma'ruza mavzusi boyicha ta'lim texnologiyasi, matnida bozor segmentatsiyasi mohiyati va uning ahamiyati, bozor segmentatsiyasi xususiyatlari, bozor segmentatsiyasi turlari, maqsadli segment bozorlarini tanlash, bozorda eng kerakli segmentlarini aniqlash, tovarni bozordagi joylashish pozitsiyasi, tovar uni o'rganish tovarlar assortimenti va sifati marketing tizimida reja-savollariga ma'ruza matni hamda tayanch iboralar, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati, nazorat uchun og'zaki va test savollari berilgan.

Umuman olganda, Z.Kazakova tomonidan tayyorlangan "Bozor segmentatsiyasi va xaridorlar turlari. Tovar va tovar siyosati" mavzusidagi ma'ruza ishlanmasi "Ochiq ma'ruzalarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom" talablariga mos keladi va uni o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

**TDIU Samarqand filiali**
**"Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes"**
**kafedrasi mudiri, dotsent** **O.Pardayeva**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrasi katta o'qituvchisi Zulayxo Kazakova tomonidan "Menejment va marketing" fanining "Bozor segmentatsiyasi va xaridorlar turlari. Tovar va tovar siyosati." mavzusi bo'yicha tayyorlagan ochiq ma'ruza darsi ishlanmasiga**

## T A Q R I Z

Marketingni boshqaruv tizimida bozor segmentasiyasi muxim ahamiyatga ega va bozorda talabni o'rganish yoki marketologlar atamasi bilan aytganda "iste'molchini tahlil etish"- bozorlar xolatini tahlil etishdagi birinchi bosqich hisoblanadi. U uch tarkibiy qismga bo'linadi: bozor segmentasiyasi; iste'molchi talabi sabablarini o'rganish; qondirilmagan ehtiyojlarni aniqlash. Bozor segmentasiyasi talabni qondirishga tabaqalangan xolda yondashuvga, tovarlarning turi, sifati va miqdoriga ko'ra xar xil talab quyadigan iste'molchilarni guruxlarga ajratishda turli mezonlar qo'llashga asoslanadi, ya'ni bozor bir jinsli hodisa tarzida emas, balki ayrim-ayrim segmentlar majmui tarzida, har bir segment doirasida aloxida o'ziga xos bir talab namoyon bo'ladigan xodisa tarzida olib qaraladi.

Shundan kelib chiqib, bozor segmentatsiyasi xususiyatlari, bozor segmentatsiyasi turlari, maqsadli segment bozorlarini tanlash, bozorda eng kerakli segmentlarini aniqlash, tovarni bozordagi joylashish pozitsiyasi, tovarlar assortimenti va sifati marketing tizimida ushbu ma'ruza matnida to'liq o'z ifodasini topgan.

Bozorda xaridorlarning ma'lum bir tovarga bo'lgan talablari xilma-xildir, xar bir xaridorning o'zining didi bor. Xaridorning talabi, xoxishi, ehtiyoji, turmush tarzi, tovar sotib olishdagi xulq-atvori xaqidagi ma'lumotlar samarali marketing tadbirlari ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatlarini vujudga keltiradi.Ya'ni bozor segmentasiyasi xaridorlarning talabiga muvofiq tovarni taklif etilishini va tovarga talabni qat'iyligini ta'minlaydi.

Kazakova Z. tomonidan ochiq ma'ruza darsi uchun tanlangan "Bozor segmentatsiyasi va xaridorlar turlari. Tovar va tovar siyosati." mavzusi "Menejment va marketing" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturi (sillabusi)ga to'liq mos keladi.

Umuman olganda, ochiq ma'ruza dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimotlar, ma'ruza matni, test savollari qilingan holda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari bir-biriga bog'langan holda to'liq ko'rsatilgan hamda o'quv-uslubiy jihatdan to'g'ri ishlab chiqilganligini hisobga olib, talabalarga dars o'tish jarayonida foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

**"Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi"**
**kafedrasi dotsenti, i.f.n.** **I.Salamov**

TASDIQLAYMAN
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Xodimlar bo'limi boshlig'i